

---

## Rishton tumani delegatsiyasi Turkiyaning eng yirik kulolchilik markazlaridan biri bo'lgan "Viapot" zavodi bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi

Rishton tumani hokimi Sufhonjon Soliev boshchiligidagi rasmiylar va tadbirkorlardan iborat tuman delegatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik aloqalari o'rnatish maqsadida bugun Turkiyaning Bursa viloyati Kamolposho tumanida bo'ldi. Bugun delegatsiya a'zolari Turkiyaning eng yirik kulolchilik markazlaridan biri bo'lgan "Viapot" nomli yirik kulolchilik zavodida bo'lishdi. Tashrif chog'ida ishlab chiqarish jarayoni bilan ushbu zavodning bosh ta'asischisi Orxan Eraslaning o'zi tanishtirdi va delegatsiya a'zolariga hamrohlik qildi. Dunyoning 5 qit'asida, 83 ta mamlakatga o'z mahsulotlarini eksport qiluvchi ushbu korxonada rahbari Orxan Eraslan hamda rishtonlik tadbirkorlar o'rtasidagi muzokaralarda kelgusidagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Aytish joizki, Rishton kulolchilik mahsulotlari turkiyaliklarda katta taassurot qoldirdi. Joriy yilning sentyabr oyida Kamolposho tumani rasmiylari va tadbirkorlaridan iborat delegatsiyaning Rishton tumaniga tashrifini amalga oshirishga kelishib olindi. Shuningdek, turkiyalik tadbirkorlik Rishton kulolchilik mahsulotlarni ham o'zlari eksport qiladigan 83 ta davlatga yuborish borasida ham kelishuvga erishildi. Bundan tashqari, turkiyalik tadbirkorlar tomonidan eng yuqori texnologiyalarni tumanimizga olib borish va Yevropa bozorlarini zabt etish yuzasidan ijobiy natijalarga erishildi. Delegatsiyamiz vakillari Rishton tumani kulolchilik salohiyati, respublikamiz bozorida tutgan o'rni haqida, shuningdek, xorijiy investorlarga hukumatimiz tomonidan berilgan imtiyozlar va qulayliklar borasida ma'lumot berishdi. Rishton va Kamolposho tumanlari o'rtasida hamkorlik aloqalari o'rnatish viloyat hokimi Xayrullo Bozorov boshchiligidagi Farg'ona viloyati delegatsiyasining joriy yil fevral oyida Bursaga amaliy tashrifi doirasidagi muzokaralar chog'ida belgilab berilgan edi. Uchrashuvlarda O'zbekistonning Bursadagi faxriy konsuli Ali Baklan ham ishtirok etdi. Rishton tumani delegatsiyasining Turkiyaga tashrifi davom etmoqda.

Rishton tumani hokimlini Axborot xizmati.

2022-06-24 17:34:34